

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI


O'ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI

"Kiritdi"

O'zbekiston davlat

xoreografiya

akademiyasi rektori

 SH. M. Foxtasimov

"+" 06.06.2024-y


"Kelishildi"

O'zbekiston

Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va

innovatsiyalar vazirligi

 2024-y

"Tasdiqlayman"

O'zbekiston

Respublikasi Madaniyat

vazirligi

 2024-y

**IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60211600- "Xoreografiya" (Zamonaviy raqs) ta'lim yo'naliishi
abituriyentlari uchun**

Toshkent – 2024

Mazkur dastur va baholash mezonlari O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Kengashi yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan (2024-yil 5-maydagi 10-sonli yig‘ilish bayoni).

Tuzuvchilar:

“Xoreografiya pedagogikasi” kafedrasi
mudiri Sultangirova I.R.

“Xoreografiya jamoalari rahbari”
kafedrasi dotsenti Maxmudova M.M.

Taqrizchilar:

“Xoreografiya jamolari rahbari” kafedrasi
professori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan
artist Muxamedova O‘.N.

“San’at nazariyasi va tarixi” kafedrasi
dotsenti, San’atshunoslik fanlari nomzodi
Tashkenbayev P.I.

ABITURIYENT BILIMIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyentlar quyidagicha baholanadilar “Xoreografiya” (zamonaviy raqs)

1. Ijrochilik mahorati

(Ijrochilik mahorati “Klassik raqs”, “Zamonaviy raqs” predmetlarini o‘z ichiga oladi)

Ijrochilik mahorati “Klassik raqs”, “Zamonaviy raqs” fanlaridan nazariy va amaliy bilimlarni o‘z ichiga olgan savol-javob orqali 63 (oltmish uch) ballik tizimda baholanadi.

“Klassik raqs” predmeti bo‘yicha

“Klassik raqs” predmeti xoreografiya san’ati ta’lim yo‘nalishida asosiy mutaxassislik (raqs) fani hisoblanadi. Shu sababli ijodiy imtihon jarayonida *klassik raqs talablari bo‘yicha* – qomatni tik tutish, uning egiluvchanligini ta’minalash, yengil va noziklik (nafislik) bilan ijro etilgan qo‘l, oyoq, bosh va gavda harakatlari, sakrash, aylanish, oyoqni professional talab bo‘yicha belgilangan meyorlar darajasida baland ko‘tarish kabi ko‘plab xoreografik elementlar o‘z aksini topishi lozim. Ushbu predmet bo‘yicha abituriyent uchun qo‘yiladigan asosiy talablar:

1. Musiqani eshitish va tinglash qobiliyati.
2. Ritmni his qilish.
3. Klassik raqs mакtabining asosiy harakatlarini bilishi va ularni bajara olishi kerak.

Maksimal ball – 31 (o‘ttiz bir) ball

	1. Klassik raqs talablariiga javob beradi: a) qomatni tik tutish; b) qomatning egiluvchanligini ta’minalash;
25-31 ball	v) dastgoh oldida qo‘l, oyoq, bosh va gavda harakatlarini to‘g‘ri bajarish;

	<p>g) zal o‘rtasida yengil va noziklik (nafislik) bilan ijro etiladigan harakatlarni bajarish;</p> <p>g) zal o‘rtasida sakrashlar va aylanishlarni to‘g‘ri bajarish;</p> <p>d) musiqani his etish orqali xoreografik harakatlarning elementlarini amaliyotda to‘g‘ri va aniq bajara olish;</p> <p>2. Klassik raqs terminologiyalarini tushunish va mustaqil mushohada eta olish;</p> <p>3. Musiqiy o‘lchovlarga to‘g‘ri yondoshish;</p> <p>4. Demi-plie et grand plie, Battement tendu, Battement tendu jete, Battement fondu, Battement developpe, Rond de jambe par terre kabi amaliy mashqlarni to‘g‘ri va aniq bajara olish;</p> <p>5. Bajarayotgan amaliy harakatlarni to‘g‘ri izohlab berish.</p>
18-24 ball	<p>2. Klassik raqs talablarini tushunadi:</p> <p>a) qomatni tik tutish;</p> <p>b) qomatni egiluvchanligini ta’minlash;</p> <p>v) dastgoh oldida bajariladigan qo‘l, oyoq, bosh va gavda harakatlarini qisman bajara oladi;</p> <p>g) zal o‘rtasida yengil va noziklik (nafislik) bilan ijro etiladigan harakatlarni qisman biladi;</p> <p>g) zal o‘rtasida sakrashlar, aylanishlarni to‘g‘ri bajarish;</p> <p>d) musiqani his etish orqali xoreografik harakatlarning elementlarini amaliyotda to‘g‘ri va aniq bajara olish;</p> <p>2. Klassik raqs terminologiyasini tushunishi va mustaqil mushohada qila olish;</p> <p>3. Musiqiy o‘lchovlarga to‘g‘ri yondoshish;</p> <p>4. Demi-plie et grand plie, Battement tendu, Battement tendu jete, Battement fondu, Battement developpe, Rond de jambe par terre kabi amaliy mashqlarni to‘g‘ri va aniq bajara olish;</p> <p>5. Bajarayotgan amaliy harakatlarni to‘g‘ri izohlab berish.</p>

9-17 ball	<p>3.Klassik raqs to‘g‘risida tasavvurga ega:</p> <ol style="list-style-type: none"> 2. Klassik raqs mashqlarni to‘liq o‘zlashtirmagan. 3. Klassik raqs terminologiyasi haqida tasavvurga ega. 4. Klassik raqs to‘g‘risida nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lay olmaydi. 5. Amaliy mashqlarni qisman bajara oladi. 6. Bajarayotgan amaliy harakatlarni izohlay olmaydi. 7. Musiqiy o‘lchovlar to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega emas..
4-8 ball	<p>4. Klassik raqs fani haqida umuman tushunchalarga ega emas:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Klassik raqs terminologiyasini tushunmaydi . 2. Amaliy mashqlarni bajara olmaydi. 3. Klassik raqs harakatlarini umuman bajara olmaydi. 4.Musiqiy o‘lchovlarni tushunmaydi.

“Zamonaviy raqs” predmeti bo‘yicha

“Zamonaviy raqs” predmeti xoreografiya san’ati ta’lim yo‘nalishida mutaxassislik (raqs) fani hisoblanadi. Shu sababli ijodiy imtihon jarayonida zamonaviy raqs talablari bo‘yicha–qomatni tik tutish, uning egiluvchanligini ta’minlash, yengil va noziklik (nafislik) bilan ijro etilgan qo‘l, oyoq, bosh va gavda harakatlari, sakrash, aylanish kabi ko‘plab xoreografik elementlar o‘z aksini topishi lozim. Ushbu predmet bo‘yicha abituriyent uchun qo‘yiladigan asosiy talablar:

1. Musiqani eshitish va tinglash qobiliyati.
2. Ritmni his qilish.
3. Zamonaviy raqs matabining asosiy harakatlarini bilishi va ularni bajara olishi kerak.

Maksimal ball – 32 (o‘ttiz ikki) ball

	<p>1. Zamonaviy raqs talablariga javob beradi:</p> <ol style="list-style-type: none"> a) qomatni tik tutish; b) qomatning egiluvchanligini ta’minlash;
--	---

25-32 ball	<p>v) dastgoh oldida qo‘l, oyoq, bosh va gavda harakatlarini to‘g‘ri bajarish;</p> <p>g) zal o‘rtasida zamonaviy harakatlarini yengil va noziklik (nafislik) bilan ijro etiladigan harakatlarni bajarish;</p> <p>g) musiqani his etish orqali zamonaviy harakatlarning elementlarini amaliyatda to‘g‘ri va aniq bajara olish;</p> <p>2. Zamonaviy raqs terminologiyalarini tushunish va mustaqil mushohada eta olish;</p> <p>3. Musiqiy o‘lchovlarga to‘g‘ri yondoshish;</p> <p>4. Bajarayotgan amaliy harakatlarni to‘g‘ri izohlab berish.</p>
18-24 ball	<p>2. Zamonaviy raqs talablarini tushunadi:</p> <p>a) qomatni tik tutish;</p> <p>b) qomatni egiluvchanligini ta’minlash;</p> <p>v) dastgoh oldida bajariladigan qo‘l, oyoq, bosh va gavda harakatlarini qisman bajara oladi;</p> <p>g) zal o‘rtasida zamonaviy harakatlarni yengil va noziklik (nafislik) bilan ijro etiladigan harakatlarni qisman biladi;</p> <p>g) musiqani his etish orqali zamonaviy xoreografik harakatlarning elementlarini amaliyatda to‘g‘ri va aniq bajara olish;</p> <p>2. Zamonaviy raqs terminologiyasini tushunishi va mustaqil mushohada qila olish;</p> <p>3. Musiqiy o‘lchovlarga to‘g‘ri yondoshish;</p> <p>4. Bajarayotgan amaliy harakatlarni to‘g‘ri izohlab berish.</p>
9-17 ball	<p>3. Zamonaviy raqs to‘g‘risida tasavvurga ega:</p> <p>1. Zamonaviy raqs mashqlarni to‘liq o‘zlashtirmagan.</p> <p>2. Zamonaviy raqs terminologiyasi haqida tasavvurga ega.</p> <p>3. Zamonaviy raqs to‘g‘risida nazariy bilimlarni amaliyat bilan bog‘lay olmaydi.</p> <p>4. Amaliy mashqlarni qisman bajara oladi.</p> <p>5. Bajarayotgan amaliy harakatlarni izohlay olmaydi.</p>

	6. Musiqiy o'lchovlar to'g'risida to'liq tasavvurga ega emas.
	4. Zamonaviy raqs fani haqida umuman tushunchalarga ega emas:
4-8 ball	<ol style="list-style-type: none"> 1. Zamonaviy raqs terminologiyasini tushunmaydi . 2. Amaliy mashqlarni bajara olmaydi. 3. Zamonaviy raqs harakatlarini umuman bajara olmaydi. 4. Musiqiy o'lchovlarni tushunmaydi.

2. Xoreograf mahorati

Ijodiy kirish imtihoni amaliy va nazariy qismlardan tashkil topgan bo'lib, abituriyentlar xoreografiya san'ati, uning tarixi va elementlariga oid birlamchi (dastlabki) tushunchalarni bilishlari talab etiladi.

1. Zamonaviy raqs kompozitsiyasini namoyishi (3-5 daqiqa).
2. Zamonaviy raqs improvizatsiya mahorati. (5 daqiqa).
3. Savol-javob (bilettagi savollarga javob berish).

Biletlar savollari umumlashtirilgan ma'lumotlar to'plami oldindan akademianing uzdxo.uz rasmiy sayti orqali yoritiladi va abituriyentlar diqqatiga yetkaziladi. Suhbatlashish jarayonida abituriyentning umumiyligi ma'naviy, estetik fikrlash, o'zbek va jahon san'at turlariga oid bo'lgan manbalarni va xoreografiya san'atiga o'zining hissasini qo'shgan ijodkorlar ijodiy faoliyatini qay darajada bilishi aniqlanadi.

Shu bilan birgalikda abituriyent bilet asosida tanlagan musiqaga raqs ijro (improvizatsiya qilib) etib berishi lozim.

Abituriyent uchun asosiy talablar:

Maksimal ball - 93 (to'qson uch) ball

	Xoreografik asar uchun mavzu va syujet tanlagan.
80-93 ball	Sahnalashtirgan xoreografik raqsining mazmun va mohiyatini aniq biladi hamda o'zi mustaqil ijro eta oladi. Harakatlarni to'g'ri va aniq bajara oladi va tushuntirib beradi. Xalq, milliy, klassik raqlar va

	baletlar haqida tushunchaga ega.
	Musiqiy asarning g‘oyasini olib bera olgan va tanlangan musiqiy asar muallifining ijodiy faoliyati haqida bilimga ega. Musiqa janrlarini tushunadi va farqlaydi.
	Ijrochilar bilan ishlash metodlarini biladi. Mashg‘ulotlar jarayonida jamoa qatnashchilari bilan ijodiy muloqot qila oladi.
	Ijrochilik va improvizatsiya mahoratiga ega.
50-79 ball	Sahnalashtirgan raqsining mazmun-mohiyatini tushunadi va ijro etib bera oladi. Xalq, milliy, klassik raqslar va baletlar haqida tushunchaga ega.
	Tanlagan musiqasi haqida umumiy tushunchaga ega.
	Ijrochilar bilan ishlashni biladi.
20 - 49 ball	Sahnalashtirgan raqs haqida umumiy tushunchaga ega.
	Sahnalashtirgan raqsini qisman ijro eta oladi. Haraqatlarni to‘lik bajara olmaydi. Xalq, milliy, klassik raqslar va baletlar haqida tushunchaga ega emas.
	Musiqa haqida umumiy tushunchaga ega.
	Improvizatsiya qilish qobiliyatiga qisman ega.
1 - 19 ball	Xoreografik asar mavzui va syujeti haqida tushunchaga ega emas. Ritm va musiqani his qilmaydi. Sahnalashtirgan raqsini mazmuni yo‘q va raqsini o‘zi ijro eta olmaydi. Ijrochilik improvizatsiya qobiliyatiga umuman ega emas.

3. Ijodiy imtihonda abituriyentlar bilimini baholash

1. Ijrochilik mahorati (“Klassik raqs” va “Zamonaviy raqsi” predmetlari)

bo‘yicha maksimal - 63 (oltmish uch) ball.

2. Xoreograf mahorati bo‘yicha maksimal - 93 (to‘qson uch) ball.

Jami maksimal - 156 (bir yuz ellik olti) ball.

4. Kasbiy(ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish tartibi

60211600 “Xoreografiya” (Zamonaviy raqs) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan abituriyentlar jadval asosida belgilangan kunda ijodiy imtihon topshiradilar. Ijodiy imtihon “Ijrochilik mahorati” (Klassik raqs va Zamonaviy raqs) hamda “Xoreograf mahorati”dan amaliy va nazariy shaklda o‘tkaziladi. Abituriyentlar ijodiy imtihonda o‘zining ijro mahorati va qobiliyatini ko‘rsatib berishilari lozim.

Abituriyentlarning amaliy shaklda bajargan ishlarini tekshirish va baholash shifrlash orqali amalga oshiriladi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkaziladigan binoga kirishda abituriyent kitob, uyali telefon, kompyuter, telekommunikatsiya vositalari va shpargalkalar olib kirishga harakat qilsa yoki olib kirgan bo‘lsa, shuningdek, kasbiy (ijodiy) imtihonlar davomida imtihon topshiriqlarini boshqa abituriyentga uzatsa yoki yordam bersa, kasbiy (ijodiy) imtihonlar uchun ajratilgan vaqt tugaganidan keyin imtihon topshiriqlarini topshirishdan bosh tortsa, imtihon topshiriqlarini guruhdan tashqariga chiqarsa, mazkur holatlarda abituriyent kasbiy (ijodiy) imtihon o‘tkazish tartibini buzgan hisoblanadi. Imtihon komissiyasi raisi hamda guruh nazoratchilari tomonidan dalolatnoma tuziladi va kasbiy (ijodiy) imtihondan chetlashtiriladi.

5. Apellyatsiya tartibi

Abituriyentlar kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo‘yicha akademiya apellyatsiya komissiyasiga natijalar e’lon qilingan kundan boshlab, 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Abituriyent tomonidan yozilgan murojaat, uning o‘ziga tegishli to‘plangan ballar bo‘yicha norozilik bo‘lgan holatda ariza qabul qilinadi. Boshqa abituriyentlarga tegishli bo‘lgan masalalar yuzasidan yozilgan shikoyat - arizalari qabul qilinmaydi.

“Xoreografiya san’ati” fakulteti
60211600 – Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha
kasbiy(ijodiy) imtihonlar dasturi va baholash mezonlariga
TAQRIZ

60211600 – Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi va baholash mezonlari o‘rnatilgan tartibda belgilangan meyoriy hujjatlar va talablar asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu ixtisoslik bo‘yicha ijodiy imtihonlar klassik raqs, zamonaviy, baletmeysterlik san’ati kabi predmetlardan ko‘nikma va bilimlarni aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Mazkur ta’lim yo‘nalishiga o‘rta, o‘rta-maxsus ta’lim muassasalarini tamomlagan xoreografiya san’ati bo‘yicha iqtidorli o‘quvchilar, san’at va madaniyat kollejlарini tugatgan yoshlar quyidagi ixtisosliklarga qabul qilinadi:

Ijodiy imtihonlar dasturi va baholash mezonlarida Xoreografiya akademiyasi ijodiy imtihonlarga maslahatchi o‘qituvchilar yordamida tayyorgarlik ko‘rish, imtihonlarni qabul qilish qoida va tartiblari belgilangan. Shu bilan birga musiqa, raqs, dastur tayyorlash va boshqa ijodiy jarayonlarni olib borib, ijodiy imtihonlarga tayyorlanish belgilangan.


Xoreografiya (Zamonaviy raqs) yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar asosiy, umumta’lim va maxsus tayyorgarligiga mos ravishda kasbiy faoliyatning quyidagi turlarini bajarishlari belgilangan:

- balet spektakllari va xalq raqs ansambllarida yakka va yetakchi partiyalarni ijro etishi; bir aktli balet spektakllarini, konsert dastur-larini yaratish va sahnalashtirish, ijodiy xoreografiya jamoalarini (to‘garaklar, studiyalar, raqs ansambllari, ashula va raqs ansambllari) tuzishi.

Kasbiy(ijodiy) imtihonlar dasturida baholash mezonlari keltirilgan.

60211600 Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta’lim yo‘nalishining ijodiy imtihonlar dasturi va baholash mezonlari meyoriy hujjatlar asosida bajarilgan va uni tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

**“San’at nazariyasi va tarixi”
kafedrasi dotsenti,
San’atshunoslik fanlari nomzodi**



Tashkenbayev P.I.

“Xoreografiya san’ati” fakulteti

60211600 – Xoreografiya (Zamonaviy raqs) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy(ijodiy)imtihonlar dasturi va baholash mezoniga

60211600 – Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy(ijodiy) imtihonlar dasturi va baholash mezoni o‘rnatilgan tartibda belgilangan meyoriy hujjatlar va talablar asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ijodiy imtihonlar, xususan, “Klassik raqs”, “Zamonaviy raqs”, “Xoreograf san’ati” kabi fanlardan ko‘nikma va bilimlarni aniqlash orqali amalga oshirish belgilangan.

Bakalavrlik ta’lim yo‘nalishining “Zamonaviy raqs”, “Xoreografiya jamoalari rahbari”, ixtisosliklariga o‘rta, o‘rta-maxsus ta’lim muassasalarini tugatgan, xoreografiya san’ati bo‘yicha iqtidorli o‘quvchilar, san’at va madaniyat sohasadagi kollejlarini tugatgan yoshlar qabul qilinadi.


Tavsiya etilgan ijodiy imtihonlar dasturi va baholash mezonida O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasida ijodiy imtihonlarga maslahatchi o‘qituvchilar yordamida tayyorgarlik ko‘rish, imtihonlarni qabul qilish qoida va tartiblari belgilangan. Shu bilan birga musiqa, raqs yoki balet spektakllaridan parchalar, hamda liboslar, dastur tayyorlash va boshqa ijodiy jarayonlarni olib borib, ijodiy imtihonlarga tayyorlanish belgilangan.

Xoreografiya (Zamonaviy raqs) yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar asosiy, umumta’lim va maxsus tayyorlarligiga mos ravishda kasbiy faoliyatning quyidagi turlarini bajarishlari belgilangan: balet spektakllari va xalq raqs ansambllarida yakka va yetakchi partiyalarini ijro etishi; bir aktli balet spektakllarini, konsert dasturlarini yaratish va sahnalashtirish, ijodiy xoreografiya jamoalarini (to‘garaklar, studiyalar, balet teatrlari, zamonaviy raqs ansambllari) tuzishi.

Kasbiy(ijodiy) imtihonlar dasturida baholash mezonlari keltirilgan.

60211600 -Xoreografiya (Zamonaviy raqs) ta’lim yo‘nalishining ijodiy imtihonlar dasturi va baholash mezonlari meyoriy hujjatlar asosida bajarilgan va uni tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

O‘zDXA “Xoreografiya jamoalari rahbari” kafedrasi professori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist



Muxamedova O'N.